IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

O‘rmonaliyeva Sarvinoz Ilhomjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy til va adabiyot fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi,
1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23896767

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining shakllanishi, 1993-yildagi qonunchilik asoslari hamda 2026-yil 21-oktabrda qabul qilingan O‘RQ-1184-sonli Qonun bilan belgilangan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Tilshunos olimlarning qarashlari taqqoslanadi, yangi alifbo ta’lim, nashriyot va raqamli muhitga (telefon va kompyuterda yozish, shriftlar, elektron lug‘atlar, qidiruv) ta’siri jihatidan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar va ochiq manbalarni tahlil qilishga asoslangan.
Kalit so‘zlar: o‘zbek alifbosi, lotin yozuvi, alifbo islohoti, imlo, yozuv tizimi, savodxonlik, ta’lim, raqamlashtirish.

ABSTRACT. This article examines the development of the Latin-based Uzbek alphabet, its legal foundations established in 1993, and the changes introduced by Law No. O‘RQ-1184 of 21 October 2026. The views of linguists are compared, and the possible impact of the new alphabet on education, publishing and the digital environment (typing on phones and computers, fonts, electronic dictionaries, search) is considered. The study is based on the analysis of legal documents and publicly available sources.
Keywords: Uzbek alphabet, Latin script, alphabet reform, orthography, writing system, literacy, education, digitalization.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются развитие узбекского алфавита на латинской основе, его правовые основы, заложенные в 1993 году, и изменения, предусмотренные Законом № O‘RQ-1184 от 21 октября 2026 года. Сопоставляются взгляды лингвистов, рассматривается возможное влияние нового алфавита на образование, книгоиздание и цифровую среду (набор на телефоне и компьютере, шрифты, электронные словари, поиск). Исследование основано на анализе нормативно-правовых документов и открытых источников.
Ключевые слова: узбекский алфавит, латинская графика, реформа алфавита, орфография, система письма, грамотность, образование, цифровизация.

O‘zbek lotin alifbosini takomillashtirish faqat harflar shakliga oid masala emas: alifbo ta’lim, rasmiy hujjatlar, nashriyot va elektron axborot almashinuvida qo‘llanadigan umumiy yozuv me’yorlarini belgilaydi. Yangi alifbo kuchga kirishidan oldin ta’lim muassasalari, nashriyotlar va davlat tashkilotlari unga qanday moslashishini rejalashtirish zarur, shu bois mavzu dolzarbdir.

Maqolaning maqsadi — yangi alifbo mazmunini, uning ta’lim, nashriyot va raqamli muhitga ehtimoliy ta’sirini tahlil qilish hamda olimlarning qarashlarini taqqoslashdir. Tadqiqotda tarixiy-huquqiy va qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi; so‘rovnoma yoki eksperiment o‘tkazilmagani uchun amaliy ta’sirga oid fikrlar normativ hujjatlar tahlili va mantiqiy xulosalarga tayanadi.

Mustaqillik davrida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish ishlari 1993-yil 2-sentabrdagi 931-XII-sonli Qonun bilan boshlandi. 1995-yil 6-maydagi o‘zgartirishlardan so‘ng alifbo tarkibi 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi shaklida belgilandi [1], 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bilan esa asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi [2]. Shu tariqa O‘/o‘, G‘/g‘, Sh/sh va Ch/ch kabi yozuv birliklari amaliyotga kirdi. 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli qaror bilan lotin yozuviga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlangan [5]; u 2020-yildagi PF-6084-son Farmon ijrosi uchun qabul qilingan [6].

O‘tish muddatlari bir necha bor surilgan: 1993-yilgi qarorga ko‘ra lotin yozuviga o‘tish 2000-yil 1-sentabrgacha yakunlanishi kerak edi, keyin bu muddat 2005-yilgacha, so‘ngra 2010-yilgacha uzaytirilgan va ikki yozuvdan parallel foydalanish davom etgan [9]. Turkiyada 1928-yil 1-noyabrdagi 1353-sonli qonun bilan 29 harfli lotin alifbosi joriy etilgan, 1929-yil 1-yanvardan davlat idoralari, banklar va yangi nashr etiladigan kitoblar uchun u majburiy bo‘lgan; Ozarbayjonda esa 1991-yil 25-dekabrdagi 33-sonli qonun bilan lotin alifbosi tiklangan [9]. Anhor.uz maqolasi muallifi turli davlatlardagi natijalar farqini ko‘p jihatdan islohotni amalga oshirish usuli va muddatlariga bog‘laydi [9].

2026-yil 21-oktabrda qabul qilingan O‘RQ-1184-sonli Qonun bilan 1993-yilgi qonunning 1-moddasi yangi tahrirda bayon etildi: o‘zbek alifbosi 28 ta harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat bo‘ladi [3]. Qonunda quyidagi harflar keltirilgan: A, B, D, E, F, G, Ğ, H, I, J, K, L, M, N, O, Ö, P, Q, R, S, Ş, Ç, T, U, V, X, Y, Z hamda tutuq belgisi. Amaldagi O‘, G‘, Sh va Ch birliklari yangi alifboda mos ravishda Ö, Ğ, Ş va Ç harflari bilan ifodalanadi, «ng» esa alohida harf sifatida berilmagan (1-jadval).

1-jadval. Amaldagi va yangi alifbo: o‘zgargan harflar

Amaldagi yozuv	Yangi alifbodagi shakl	Izoh
O‘ / o‘	Ö / ö	Alohida harf bilan ifodalash
G‘ / g‘	Ğ / ğ	Alohida harf bilan ifodalash
Sh / sh	Ş / ş	Ikki harfli birikma o‘rniga bitta harf
Ch / ch	Ç / ç	Ikki harfli birikma o‘rniga bitta harf
Ng / ng	Alifboda alohida harf sifatida berilmagan	Yangi alifbo jadvalida mustaqil harf yo‘q

Qonun 2027-yil 22-apreldan kuchga kirishi belgilangan, ya’ni maqola tayyorlangan 2026-yil 1-noyabr holatida yangi me’yorlar hali kuchga kirmagan. Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi ijroga doir chora-tadbirlar dasturini ikki oy ichida ishlab chiqishi lozim; o‘tish davrida avvalgi shakldagi hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qog‘ozlar amal qilishda davom etadi [3].

Tilshunos olimlar alifbo va imlo o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan. Alifbo — harflar ro‘yxati, imlo qoidalari shu harflar bilan so‘zlar qanday yozilishini belgilaydi, imlo lug‘ati esa qoidalarning amaldagi namunasini ko‘rsatadi. Nizomiddin Mahmudov «Til, alifbo va imlo tanosibi» (ya’ni o‘zaro muvofiqligi) maqolasida alifbodan foydalanish yo‘llarini imlo qoidalari

belgilashini, mukammal imlo esa savodxonlikni ta’minlashini ta’kidlaydi. Misol sifatida u amaldagi imlo lug‘atida narad, oktabr, plaj, sentabr «y»siz, aktyor, montyor, samolyot esa «y» bilan yozilganini, ya’ni izchillik buzilganini ko‘rsatadi [4].

Shavkat Rahmatullayev «O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi» asarida kirill yozuvidagi ё, ю, я harflarining lotin yozuvida yozilishiga amaliy qoida beradi. Mahmudov keltirgan parchaga ko‘ra, bu harflar ikki tovushni (y + unli) bildirsa, yo, yu, ya yoziladi (yumor, yaxshi); oldingi undoshning yumshoqligini ko‘rsatsa, asosan o, u, a yoziladi (stajor, lustra), ba’zan esa yo, yu, ya saqlanadi (aktyor, byuro) [4; 7]. E. Begmatov, A. Madvaliyev va Y. Odilovning «O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati» (2023) mualliflari esa bu tavsiyadagi ziddiyatni ko‘rsatadi: aktyor, byuro kabi so‘zlarda ham bu harflar stajor, lustra so‘zlaridagi bilan bir xil o‘rinda turadi va o‘zbekcha talaffuzda ikki tovush bilan aytiladi, undoshlarning yumshoqligi esa ruscha xususiyat [4; 8].

Demak, Rahmatullayev bir masalaga ikki yo‘l tavsiya qiladi, Begmatov va hammualliflar shu farqlashdagi ziddiyatni ko‘rsatadi, Mahmudov esa alifbo, imlo va lug‘atni yagona tizim sifatida baholaydi. 2026-yilgi qonun alifbo tarkibini belgilaydi, ё, ю, я kabi masalalar esa imlo qoidalari doirasida hal qilinadi, shuning uchun alifbo bilan birga imlo qoidalari va lug‘atlar ham yangilanishi kerak. Mening fikrimcha, alifboni takomillashtirishda olimlar ta’kidlagan lingvistik tamoyillar bilan birga, oddiy foydalanuvchilarning kundalik ehtiyojlarini ham hisobga olish kerak: yozuv tizimi izchil bo‘lishi bilan birga, uni maktab o‘quvchilari, o‘qituvchilar va keng jamoatchilik oson o‘zlashtira olishi ham muhim.

Alifbodagi o‘zgarishlar boshlang‘ich sinflarda moslashuvni talab qilishi mumkin, chunki birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari savod chiqarish jarayonida harflarni tanish, tovushlarni farqlash va so‘zlarni yozish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mening fikrimcha, yangi alifboga o‘tish bosqichma-bosqich tashkil etilishi kerak: amaldagi yozuv asosida o‘qiyotgan o‘quvchilarning o‘qish jarayonini keskin o‘zgartirish ularga qo‘shimcha yuk bo‘lishi mumkin, yangi alifboni esa tegishli darsliklar tayyor bo‘lgandan so‘ng izchil o‘rgatish maqsadga muvofiq. Qaysi sinflar qaysi o‘quv yilidan yangi alifboda o‘qishini vakolatli organlar rasmiy ijro dasturi va ta’lim standartlari asosida aniqlashi kerak. Yangi harflar asosan to‘rtta harfga taalluqli bo‘lgani uchun barcha aholi uchun majburiy kurslar zarur, deb hisoblamayman; maktablarda o‘qitish va o‘qituvchilar, davlat idoralari xodimlari hamda muharrirlar uchun qisqa uslubiy yo‘riqnoma yetarli bo‘lishi mumkin. Qonunning o‘zida ham uni aholiga tushuntirish va ijro dasturini ishlab chiqish Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan [3].

Mening fikrimcha, shu kungacha amaldagi lotin yozuvida chop etilgan kitoblar va foydali qo‘lyozmalardan avvalgidek foydalanish davom etishi kerak. Yangi alifbodagi o‘zgarishlar yozuvning ayrim belgilariga tegishli bo‘lgani uchun o‘quvchi avvalgi nashrlar mazmunini tushunishda davom etishi mumkin, shu sababli mavjud kitoblarni majburan qayta nashr etish shart emas. Kelgusida yaratiladigan darsliklar, ilmiy va badiiy asarlar hamda rasmiy matnlar esa qonun kuchga kirgach tasdiqlanadigan imlo me’yorlariga muvofiq tayyorlanishi lozim. Bu qarash qonundagi huquqiy qoidalardan alohida: qonun ayrim rasmiy hujjatlar, valyuta va qimmatli qog‘ozlardan foydalanish davom etishini belgilaydi, lekin barcha eski kitoblarni qayta nashr etishni talab qilmaydi [3].

Raqamli muhitda yangi harflar bilan ishlash amaliy savollar tug‘diradi. Telefonda turk tili klaviaturasi qo‘shilsa, Ö, Ğ, Ş, Ç harflari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoziladi; ko‘p klaviaturalarda O, G, S, C ni bosib turganda qo‘shimcha variantlar chiqadi (qurilmaga qarab farq qilishi mumkin).

Kompyuterda Windows'ga turk tili klaviaturasini qo'shish yoki Word'da Unicode kodini yozib Alt+X bosish mumkin (masalan, Ğ uchun 011E; Ö — 00D6, Ş — 015E, Ç — 00C7). Word hujjatini PDFga aylantirgach, harflar to'g'ri ko'rinishini, matndan nusxa olganda va qidirganda saqlanishini tekshirish kerak; Times New Roman, Arial, Calibri kabi shriftlar odatda bu harflarni qo'llaydi. Elektron lug'at va qidiruv tizimlarida «shahar» ham, «şahar» ham bir xil natija berishi, alifbo tartibi esa qonundagidek saqlanishi (Ç harfi Ş dan keyin, T dan oldin) maqsadga muvofiq [3]. Eski matnlarni oddiy «topib almashtirish» bilan o'girish xatoga olib kelishi mumkin, shuning uchun natijani inson tekshirishi kerak. Bu misollar umumiy texnik imkoniyatlarga asoslangan va har bir qurilmada amalda sinab ko'rilmagan; qonun kuchga kirgach ularni alohida sinash zarur.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, alifbo islohoti bir vaqtning o'zida lingvistik, huquqiy, pedagogik va texnik masalalarni qamrab oladi. Alohida tovushlarni alohida harflar bilan ifodalash yozuvni soddalashtirishi mumkin, biroq bu darsliklar, lug'atlar, imlo qo'llanmalari va elektron resurslar muvofiqlashtirilgandagina samara beradi. Mening fikrimcha, jamiyatning katta qismi amaldagi alifbo tartibiga ko'nikib ulgurgan, shuning uchun yangilanishni hurmat bilan qabul qilish bilan birga, o'tish davrini puxta tashkil etish ham zarur. Maqolaning cheklovi shundaki, unda yangi alifboning o'qish tezligi, imlo xatolari soni yoki raqamli tizimlardagi samaradorligi bo'yicha eksperimental ma'lumotlar yo'q; bunday ko'rsatkichlarni keyingi tadqiqotlarda o'quvchilar, pedagoglar va muharrirlar ishtirokida sinash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish til siyosati, ta'lim, nashriyot va raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq jarayondir. O'RQ-1184-sonli Qonun alifbo tarkibini 28 ta harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat qilib belgilagan va 2027-yil 22-apreldan kuchga kiradi [3]. Islohot izchil kechishi uchun imlo qoidalari va lug'atlar alifbo bilan birga yangilanishi, o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, avvalgi kitoblardan foydalanish davom etishi, yangi harflar raqamli muhitda oldindan sinab ko'rilishi hamda aniq o'tish muddatlari belgilanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov, N. Til, alifbo va imlo tanosibi // Til va adabiyot ta'limi. — 2024. — № 9. Elektron manba: https://oyina.uz/uz/article/3118 (murojaat sanasi: 31.10.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. — LexUZ. https://lex.uz/uz/acts/-5281850 (murojaat sanasi: 31.10.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. — LexUZ. https://lex.uz/mact/-5058351 (murojaat sanasi: 31.10.2026).
4. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. — Toshkent: Universitet, 1999.
5. Begmatov, E.A., Madvaliyev, A.P., Odilov, Y.R. O'zbek tilining katta imlo lug'ati. — Toshkent: Kafolat, 2023.
6. Yakupova, U. Harflar ortidagi siyosat // Anhor.uz. — 2026, 25-oktabr. https://anhor.uz/uzl/ichkaridan-nazar/harflar-ortidagi-siyosat